

## DAVLAT QARZINI JORIY HOLATI, UNI O`SISHIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLAR VA UNING TAHLILI

**Adashaliyev Temurbek Ulug`bek o`g`li**

*InFinBank AJ Namangan viloyati filiali Korporativ mijozlarga xizmat ko`rsatish front-ofisi 2-toifali mutaxassisi*

**Annotatsiya.** Mamlakatimizning jahon moliya tizimiga jadal integratsiyalashuvi sharoitlarida davlat qarzining xavfsiz darajada bo`lishi mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O`zbekistonda davlat qarzini boshqarish O`zbekiston Respublikasi budget kodeksi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.01.2020 da qabul qilingan “Davlat qarzini samarali boshqarish va jalb qilinayotgan qarzlardan maqsadli foydalanishni ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori bilan amalga oshiriladi. Xalqaro mezonlarga ko`ra, hozirda O`zbekiston Respublikasining davlat qarzi (keyingi o`rinlarda — davlat qarzi) “mo`tadil” darajada bo`lsada, O`zbekistonning suveren kredit reytinglari barqarorligini hamda davlat qarzining xavfsiz darajada bo`lishini kafolatli ta`minlash mexanizmlarini yaratish bugungi kun talabi bo`lmoqda.<sup>12</sup>

**1-jadval O`zbekistonning davlat tashqi qarzi bo`yicha to`lovga layoqatlilik va likvidlilik ko`rsatkichlarining kelgusidagi dinamikasi**

| № | Barqarorlik ko'rsatkichlari                                                        | 2020 | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  | 2025  | 2030 | 2040 |
|---|------------------------------------------------------------------------------------|------|-------|-------|-------|-------|-------|------|------|
| 1 | Davlat tashqi qarzining YAIMga nisbati (%)                                         | 24,7 | 29,5  | 30,9  | 30,9  | 30,8  | 29,9  | 29,5 | 25,5 |
| 2 | Davlat tashqi qarzining eksport hajmiga nisbati (%)                                | 84,1 | 117,8 | 114,4 | 110,7 | 109,3 | 103,3 | 100  | 86,4 |
| 3 | Davlat tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarining eksport xajmiga nisbati (%) | 4,5  | 6,8   | 8,8   | 7,9   | 7,8   | 9,7   | 7,4  | 9,9  |

<sup>12</sup> “Xalqaro Pul Fondining davlat qarzi barqarorligi tahlili”, 19-aprel 2020-yil, Adnan Mazarei va Zeine Zeidane (IMF), John Panzer (IDA) tomonidan tasdiqlangan

|   |                                                                                                 |     |     |     |     |     |    |     |      |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|-----|-----|-----|-----|----|-----|------|
|   | <b>Davlat tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarining byudjet daromadlariga nisbati (%)</b> |     |     |     |     |     |    |     |      |
| 4 |                                                                                                 | 4,6 | 6,9 | 8,6 | 8,7 | 8,7 | 11 | 8,4 | 10,3 |

O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi (keyingi o'rinlarda — davlat tashqi qarzi) hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha va dasturlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan bitimlarni imzolash va O'zbekiston Respublikasi kafolatini berish Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullangan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi va xususiy tadbirkorlik masalalari kotibiyati Vazirlar Mahkamasi Rayosatida davlat tashqi qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan dastur va loyihalarga doir masalalarni ko'rib chiqish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha va dasturlarni tanlab olish va natijadorligini nazorat qilish tartibini ishlab chiqadi. Davlat tashqi qarzi hisobidan moliyalashtirilgan loyiha va dasturlarning natijadorligini baholash jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

- yakunlangan loyiha va dasturlarni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi auditdan o'tkazishi, audit natijalari bo'yicha axborotni har chorak yakunida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasi Rayosatiga yuborishi;
- tegishli vazirlik va idoralar yakunlangan loyiha va dasturlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'mitalariga uch oy ichida taqdimotlar o'tkazishi;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Moliya vazirligi loyiha va dasturlarning ishlab chiqilishi, tanlab olinishi, monitoringi va audit natijalariga oid ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari va veb-saytlarda joylashtirilishini ta'minlashi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat tashqi qarzi holati bo'yicha, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi esa davlat tashqi qarzi hisobidan moliyalashtirilgan loyihalarning amalga oshirilishi bo'yicha har yili bir marta O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga hisobot berib boradi.

Davlat qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha va dasturlar bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida, to'liq va kafolatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 2020-yil 1-fevraldan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Kafolat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda —

Jamg'arma) tashkil etildi. Davlat qarzi, jumladan O'zbekiston Respublikasining kafolatlari hisobidan moliyalashtirilgan loyiha va dasturlar bo'yicha qarzidor tashkilotlar (banklar) o'z qarz to'lovlarini vaqtida va to'liq amalga oshirmagan holatlarda davlat qarzi Jamg'arma mablag'lari va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan so'ndirilsin hamda qarzidor tashkilotlardan (banklardan) mavjud qarzidorlikva hisoblangan jarima to'lovlari mos ravishda Jamg'arma va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qaytarilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan qarz mablag'larini jalb qilishda konservativ yondashuvga tayangan holda xatarlarni boshqarish tamoyillarini qo'llash borasida tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Davlat tashqi qarzining manbalari diversifikatsiyalangan bo'lib, tashqi qarz portfelida xalqaro moliyaviy institutlardan jalb qilgan qarz hajmi 10,1 mlrd. dollarni tashkil etadi. Xususan, tashqi qarzning asosiy qismi Osiyo taraqqiyot banki (5,0 mlrd. dollar), Jahon banki (3,7 mlrd. dollar) va Islom taraqqiyot banki (0,9 mlrd. dollar) hissasiga to'g'ri keladi. Xorijiy davlatlar moliya tashkilotlarining davlat tashqi qarzidagi ulushi 44,0 foizni tashkil qilmoqda.

Davlat qarzini samarali boshqarish maqsadida Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan hamkorlikda 2020 — 2022-yillar uchun O'zbekiston Respublikasining davlat qarzini boshqarish strategiyasi ishlab chiqilgan. Strategiya doirasida davlat qarzini diversifikatsiyalash hamda valyuta xatarlarini kamaytirish maqsadida Davlat byudjeti taqchilligini, avvalo, davlat qimmatli qog'ozlarini ichki bozorda joylashtirish va suveren xalqaro obligatsiyalarni xalqaro moliya bozoriga joylashtirish orqali qoplash borasida aniq vazifalar belgilanib, amalga oshirilmoqda.

Davlat qarzi, shu jumladan, tashqi qarzni doimiy monitoring qilish maqsadida Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi barqarorligi tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, ilk bor «2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonun bilan davlat qarzi miqdorining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 60 foizdan oshirmaslik belgilandi.

Bundan tashqari, davlat qarzini jalb qilish va ishlatilishi bo'yicha shaffoflikni ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Xususan, davlat qarzi hisobidan moliyalashtirilgan va yakunlangan barcha loyihalar majburiy tartibda Hisob palatasi tomonidan auditdan o'tkazilishi hamda Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirokida muhokama qilib borilishi tizimli yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va AQSH g'aznachiligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining «Davlat qarzi to'g'risida»gi qonuni loyihasi ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasida deputatlar muhokamasiga kiritilishi kutilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2019 yil. 26 dekabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2019 y. 50-son. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2021-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y. 6-son.
4. The World Bank and IMF (2002) "Guidelines for Public Debt Management", Washington, D.C;
5. The World Bank and IMF (2014) "Revised Guidelines for Public Debt Management".